

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI BILVOSITA SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Alimov Mansurboy Maxmudovich

Sirdaryo tumani Maktab va maktabgacha ta'limi bo'limi mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda kichik tadbirkorlik subyektlarini bilvosita soliqqa tortishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Qo'shilgan qiymat solig'ining amaldagi mexanizmi kichik biznes uchun yuzaga keltiradigan hisob-kitob, hisobot va ma'muriy xarajatlar tahlil qilingan. Aylanmadan olinadigan soliqdan umumbelgilangan soliq rejimiga o'tishdagi keskinlik, kiruvchi QQSni hisobga olish hamda soliqqa tortish chegarasi atrofida biznesni sun'iy bo'lish muammolari ko'rsatilgan. Buyuk Britaniya va Germaniya tajribasi asosida O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari uchun ixtiyoriy soddalashtirilgan QQS rejimini joriy etish, soliq hisobotini avtomatlashtirish va o'zaro bog'liq shaxslar aylanmasini umumlashtirib hisoblash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bilvosita soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, kichik tadbirkorlik, soliq ma'muriyatchiligi, aylanmadan olinadigan soliq, soddalashtirilgan QQS, kiruvchi QQS, soliqqa tortish chegarasi.

KIRISH

Bilvosita soliqlar tovarlar, ishlar va xizmatlar narxiga qo'shilishi orqali yakuniy iste'molchi zimmasiga o'tkaziladigan, biroq byudjetga tovarlarni realizatsiya qiluvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to'lanadigan soliqlar hisoblanadi. Ularning asosiy turlarini qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i tashkil etadi. Mazkur soliqlar davlat byudjeti daromadlarini barqaror shakllantirish bilan birga iste'mol, ishlab chiqarish va import jarayonlariga iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy xususiyati shundaki, soliq ishlab chiqarish va realizatsiya zanjirining har bir bosqichida yaratilgan qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Soliq to'lovchi realizatsiya qilishda hisoblangan QQS summasidan tovarlar va xizmatlarni xarid qilishda to'langan, belgilangan shartlarga muvofiq hisobga olinadigan QQSni chegiradi. Natijada byudjetga sotishda hisoblangan va xaridda to'langan soliq summaları o'rtasidagi farq o'tkaziladi. Ushbu mexanizm soliq yukining takroriy ortib borishini cheklaydi hamda xo'jalik operatsiyalarini hujjatlashtirishga iqtisodiy rag'bat yaratadi.

Biroq standart QQS mexanizmini qo'llash soliq to'lovchidan buxgalteriya hisobini to'liq yuritish, elektron hisobvaraqlar-fakturalarni to'g'ri rasmiylashtirish, xarid va realizatsiya operatsiyalarini o'zaro muvofiqlashtirish, kiruvchi QQS summalarining asoslanganligini tekshirish hamda belgilangan muddatlarda soliq hisobotini taqdim etishni talab qiladi. Yirik korxonalar uchun mazkur xarajatlar umumiy aylanmaga nisbatan katta ulushni tashkil etmasligi mumkin. Kichik tadbirkorlik subyektida esa malakali buxgalterni jalb qilish, hisob dasturlaridan foydalanish va soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni kuzatib borish bilan bog'liq xarajatlar sezilarli ma'muriy yukka aylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘ining asosiy stavkasi **12 foiz** etib belgilangan. Aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy stavkasi esa, alohida toifalar va faoliyat turlari uchun belgilangan istisnolardan tashqari, **4 foizni** tashkil etadi [1]. Mazkur rejimlar o‘rtasida soliqni hisoblash tamoyili bo‘yicha jiddiy farq mavjud: aylanmadan olinadigan soliq yalpi tushumdan hisoblanadi, standart QQS rejimida esa hisoblangan soliqdan hisobga olinadigan kiruvchi QQS chegiriladi.

Aylanmadan olinadigan soliq rejimi hisob-kitobning soddaligi bilan kichik biznes uchun qulay bo‘lsa-da, uning QQS zanjirida ishtirok etmasligi ushbu subyektlarning QQS to‘lovchisi bo‘lgan yirik korxonalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini cheklashi mumkin. Chunki aylanmadan soliq to‘lovchidan tovar xarid qilgan QQS to‘lovchisi ushbu xarid bo‘yicha kiruvchi QQSni hisobga olish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Natijada ayrim yirik buyurtmachilar QQS to‘lovchisi bo‘lmagan kichik korxonalar bilan shartnoma tuzishdan manfaatdor bo‘lmay qoladi.

Aksincha, kichik korxonaning standart QQS rejimiga o‘tishi uni QQS zanjiriga qo‘shadi, biroq soliq hisobini yuritish xarajatlarini oshiradi. Shu sababli amaldagi ikki rejim o‘rtasida kichik tadbirkorlik subyektlarining imkoniyatlariga mos keladigan oraliq mexanizmga ehtiyoj yuzaga keladi. Bunday mexanizm standart QQSning iqtisodiy afzalliklarini saqlagan holda soliqni hisoblash va hisobot topshirish tartibini soddalashtirishi lozim.

Tadqiqotning maqsadi kichik tadbirkorlik subyektlarini bilvosita soliqqa tortishdagi mavjud muammolarni aniqlash hamda O‘zbekiston sharoitiga mos soddalashtirilgan QQS mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- kichik biznes uchun standart QQS rejimining afzallik va kamchiliklarini baholash;
- aylanmadan olinadigan soliqdan QQS rejimiga o‘tishdagi muammolarni aniqlash;
- xorijiy davlatlarda qo‘llaniladigan soddalashtirilgan QQS mexanizmlarini o‘rganish;
- soliq hisoboti va ma‘muriy xarajatlarni kamaytiruvchi ixtiyoriy rejimni taklif etish;
- soliqqa tortish chegarasini chetlab o‘tish maqsadida biznesni sun‘iy bo‘lishning oldini olish choralarini asoslash.

Kichik biznesni bilvosita soliqqa tortishdagi asosiy muammolar

Kichik tadbirkorlik subyektlarini QQSga tortishdagi birinchi muammo — soliq majburiyatining hajmi bilan uni bajarish xarajatlari o‘rtasidagi nomutanosiblikdir. Korxona aylanmasi nisbatan kichik bo‘lishiga qaramay, undan yirik korxonaga o‘xshash tartibda hisobvara-fakturalarni nazorat qilish, QQS hisobini yuritish va soliq hisobotini tayyorlash talab etiladi. Bu esa soliqning o‘zidan tashqari qo‘shimcha ma‘muriy xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Ikkinchi muammo — kiruvchi QQSni hisobga olishning hujjatlarga bog‘liqligidir. Tovar yoki xizmat haqiqatda xarid qilingan bo‘lsa ham, elektron hisobvara-fakturadagi xato, kontragent ma‘lumotlaridagi nomuvofiqlik yoki operatsiyaning soliq xavfi yuqori deb baholanishi hisobga olish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Mazkur holat kichik korxonaning aylanma mablag‘lariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Uchinchi muammo soliq rejimi almashishi natijasida yuzaga keladi. Aylanmadan olinadigan soliqdan standart QQS rejimiga o'tgan subyekt tovar qoldiqlari, avvalgi xaridlar, shartnoma narxlar va hisobvaraqa-fakturalarni qayta ko'rib chiqishi kerak bo'ladi. O'tish qoidalarining tadbirkor uchun yetarlicha tushunarli bo'lmashligi soliq xatolari va qo'shimcha hisoblangan soliq summalarining kelib chiqish xavfini oshiradi.

To'rtinchi muammo — belgilangan aylanma chegarasidan oshmaslik maqsadida faoliyatni bir nechta o'zaro bog'liq subyektlar o'rtasida sun'iy taqsimlash xavfidir. Bir xil manzil, xodimlar, aktivlar, tovar belgisi yoki boshqaruvga ega subyektlarning alohida soliq to'lovchi sifatida ko'rsatilishi soliqqa tortish chegarasining iqtisodiy mazmunini yo'qotadi. Shuning uchun soddalashtirilgan rejim joriy etilishi uni suiiste'mol qilishga qarshi aniq mezonlar bilan birga amalga oshirilishi zarur.

Xorijiy tajriba va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari

Kichik biznesni QQSga tortishda xorijiy davlatlar tajribasi yagona yondashuv mavjud emasligini ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlar kichik subyektlarni QQSdan ozod qilsa, boshqalari ularga ixtiyoriy ro'yxatdan o'tish yoki soliqni soddalashtirilgan usulda hisoblash imkoniyatini beradi.

Buyuk Britaniyada QQS bo'yicha majburiy ro'yxatdan o'tish chegarasi oxirgi 12 oydagi soliq solinadigan aylanma uchun 90 ming funt etib belgilangan. Shu bilan birga, QQS to'lovchisi bo'lgan va kelgusi 12 oydagi soliq solinadigan aylanmasi 150 ming funtdan oshishi kutilmaydigan subyektlar **Flat Rate Scheme** rejimiga kirishi mumkin [2]. Ushbu rejimda tadbirkor byudjetga to'lanadigan soliqni xarid va sotuv operatsiyalari bo'yicha alohida QQS summalarini taqqoslash orqali emas, balki QQSni o'z ichiga olgan umumiy aylanmaga faoliyat turi bo'yicha belgilangan qat'iy foizni qo'llash orqali hisoblaydi.

Flat Rate Scheme ishtirokchisi xaridlar bo'yicha kiruvchi QQSni, ayrim qiymati 2 ming funtdan yuqori kapital aktivlardan tashqari, hisobga olmaydi. Natijada kichik korxonaning har bir xarid hujjati bo'yicha QQS chegirmasini alohida hisoblashiga ehtiyoj kamayadi. Biroq moddiy xarajatlari kam bo'lgan subyektlarga 16,5 foizlik maxsus stavka qo'llanilishi rejimdan sun'iy soliq tejamkorligi vositasi sifatida foydalanishni cheklaydi [3].

Germaniyada 2025-yil 1-yanvardan yangilangan **Kleinunternehmerregelung** qoidasiga ko'ra, o'tgan kalendar yildagi aylanmasi 25 ming yevrodan oshmagan va joriy yildagi aylanmasi 100 ming yevrodan oshmaydigan tadbirkorlarga kichik biznes rejimi qo'llaniladi [4]. Ushbu subyektlar sotishda QQS hisoblamaydi, bir vaqtning o'zida xaridlar bo'yicha kiruvchi QQSni chegirish huquqiga ham ega bo'lmaydi. Tadbirkor umumiy QQS rejimiga o'tishni tanlashi mumkin, biroq bunday tanlov uni muayyan muddat davomida umumiy rejimda qolishga majbur qiladi. Bu holat soliq rejimini qisqa muddatli manfaat uchun tez-tez almashtirishning oldini oladi.

Kanadada odatda oxirgi to'rt ketma-ket kalendar choragidagi soliq solinadigan tushumi 30 ming Kanada dollaridan oshmagan shaxs kichik yetkazib beruvchi hisoblanadi va GST/HST bo'yicha majburiy ro'yxatdan o'tmaydi. Biroq u ixtiyoriy ravishda ro'yxatdan o'tishi va kiruvchi soliq kreditlaridan foydalanishi mumkin [5]. Shuningdek, chegarani

20-Iyun, 2026-yil

aniqlashda o‘zaro bog‘liq shaxslarning soliq solinadigan tushumlari ham e‘tiborga olinadi. Mazkur qoida tadbirkorlik faoliyatini bir nechta subyektga sun‘iy taqsimlab, ro‘yxatdan o‘tishdan qochish imkoniyatini cheklaydi.

Xorijiy tajribadan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundaki, kichik biznesga soliq yengilligi berishning o‘zi yetarli emas. Rejim ixtiyoriy tanlov, aniq kirish va chiqish mezonlari, kiruvchi QQSni hisobga olish qoidalari hamda biznesni sun‘iy bo‘lishga qarshi choralar bilan birgalikda ishlashi kerak.

1-jadval.

Aylanmadan olinadigan soliq, standart QQS va taklif etilayotgan soddalashtirilgan QQS rejimlarining qiyosiy tavsifi¹⁵

Mezon	Aylanmadan olinadigan soliq	Standart QQS rejimi	Taklif etilayotgan soddalashtirilgan QQS
Soliq bazasi	Yalpi tushum	Soliq solinadigan realizatsiya aylanmasi	QQSni o‘z ichiga olgan realizatsiya aylanmasi
Stavka	Umumiy holatda 4 foiz	12 foiz	Dastlabki taklif — 6 foiz
Kiruvchi QQS	Hisobga olinmaydi	Belgilangan shartlarda hisobga olinadi	Hisobga olinmaydi
Hisoblash tartibi	Aylanma × stavka	Hisoblangan QQS – hisobga olinadigan QQS	Aylanma × yagona stavka
Hisobot	Soddalashtirilgan	Nisbatan murakkab	Avtomatik shakllantiriladigan qisqa hisobot
QQSli hisobvara-q-faktura	Rasmiylashtirilmaydi	Rasmiylashtiriladi	Rasmiylashtiriladi
Ma‘muriy yuk	Past	Yuqori	O‘rtacha yoki past
Maqbul subyektlar	Asosan aholiga sotuvchi mikrobiznes	Kiruvchi QQSi va korporativ xaridorlari ko‘p subyektlar	QQSli kontragentlar bilan ishlovchi kichik biznes

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining QQS va aylanmadan olinadigan soliqqa oid normalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Soddalashtirilgan QQS rejimini joriy etish bo'yicha takliflar

Tahlil natijalaridan kelib chiqib, O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari uchun ixtiyoriy soddalashtirilgan QQS rejimini joriy etish taklif qilinadi. Ushbu rejim aylanmadan olinadigan soliq bilan standart QQS o'rtasidagi oraliq mexanizm vazifasini bajarishi lozim.

Birinchidan, rejimdan foydalanish ixtiyoriy bo'lishi kerak. Tadbirkor o'z xarajatlari tarkibi, mijozlari va kiruvchi QQS hajmini hisobga olgan holda aylanmadan olinadigan soliq, soddalashtirilgan QQS yoki qonunchilikda belgilangan shartlar asosida standart QQS rejimini tanlaydi. Asosiy xaridorlari aholi bo'lgan va kiruvchi QQSni kam subyekt uchun soddalashtirilgan rejim manfaatli bo'lishi mumkin. Xomashyo va uskuna xaridida katta miqdorda QQS to'laydigan subyekt uchun esa standart rejim maqbul bo'lib qoladi.

Ikkinchidan, soddalashtirilgan rejimda soliq QQSni o'z ichiga olgan realizatsiya aylanmasidan yagona stavkada hisoblanishi lozim:

$$KQS_{\text{содда}} = A_{KQS \text{ билан}} \times C_{\text{содда}},$$

bu yerda:

- QQSsodda— byudjetga to'lanadigan soddalashtirilgan QQS;
- Aqqs — QQSni o'z ichiga olgan realizatsiya aylanmasi;
- Ssodda— soddalashtirilgan rejim stavkasi.

Dastlabki variant sifatida 6 foizlik stavka taklif etilishi mumkin. Mazkur stavkaning 12 foizlik standart stavkadan past belgilanishi kiruvchi QQSni hisobga olmaslik bilan izohlanadi. Biroq uni yakuniy belgilashdan oldin savdo, umumiy ovqatlanish, xizmat ko'rsatish, qurilish va ishlab chiqarish sohalarida qo'shilgan qiymat ulushi hamda o'rtacha kiruvchi QQS darajasi asosida mikrosimulyatsiya o'tkazilishi zarur. Aks holda, yagona 6 foizlik stavka ayrim sohalar uchun ortiqcha, boshqalari uchun esa asossiz imtiyozli bo'lib qolishi mumkin.

Uchinchidan, soddalashtirilgan rejim ishtirokchisi xaridlar bo'yicha kiruvchi QQSni hisobga olmasligi lozim. Bu har bir xarid hujjatining chegirmaga muvofiqligini tekshirish zaruratini kamaytiradi. Biroq ushbu subyekt tomonidan xaridorga taqdim etilgan elektron hisobvara-fakturada QQS alohida ko'rsatilishi va xaridor uni belgilangan shartlarda hisobga olishi mumkin bo'lishi kerak. Shu orqali kichik korxona QQS zanjirida saqlab qolinadi.

To'rtinchidan, soliq hisoboti elektron hisobvara-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikasi, bojxona deklaratsiyalari va bank operatsiyalari ma'lumotlari asosida avtomatik shakllantirilishi zarur. Soliq to'lovchi tayyor hisobotni tekshirib, tasdiqlaydi yoki asoslangan tuzatish kiritadi. Bu yondashuv hisobotdagi texnik xatolar va buxgalteriya xarajatlarini kamaytiradi.

Beshinchidan, soddalashtirilgan rejim kamida bir kalendar yil uchun tanlanishi maqsadga muvofiq. Rejimni qisqa muddatlarda bir necha marta almashtirishga ruxsat berish tadbirkorga yirik xarid davrida standart rejimga o'tib, kiruvchi QQSni hisobga olish, keyin esa soddalashtirilgan rejimga qaytish orqali asossiz soliq manfaati olish imkonini yaratishi mumkin.

Oltinchidan, biznesni sun'iy bo'lishga qarshi qoidalar joriy qilinishi shart. Umumiy ta'sischi yoki benefitsiar, yagona boshqaruv, bir xil manzil, xodimlar va aktivlardan birgalikda foydalanish, umumiy tovar belgisi yoki iqtisodiy jihatdan yaxlit faoliyat mavjud bo'lganda subyektlarning aylanmasi ro'yxatdan o'tish chegarasini aniqlash maqsadida umumlashtirilishi lozim. Kanada tajribasida ham kichik yetkazib beruvchi chegarasini aniqlashda o'zaro bog'liq shaxslarning tushumlari hisobga olinadi [5].

Yettinchidan, yangi rejim dastlab cheklangan sohalar yoki hududlarda tajriba-sinov tariqasida qo'llanilishi kerak. Sinov davrida uning byudjet tushumlari, tadbirkorlarning ma'muriy xarajatlari, QQS zanjiri va yashirin aylanmaga ta'siri baholanadi. Natijaga ko'ra stavka va qo'llash mezonlariga tuzatish kiritiladi.

2026-yildan aylanmadan olinadigan soliqdan birinchi marta QQS va foyda solig'ini to'lashga o'tgan tadbirkorlarga olti oy davomida buxgalteriya hisobini yuritish xarajatlarining bir qismini soliq majburiyatidan kamaytirish huquqi berilgani ham muammoning davlat darajasida tan olinganini ko'rsatadi [6]. Biroq vaqtinchalik kompensatsiya muammoni to'liq hal qilmaydi; uzoq muddatli yechim soliq hisobini tizimli soddalashtirishdan iborat bo'lishi kerak.

XULOSA

Kichik tadbirkorlik subyektlarini bilvosita soliqqa tortishda faqat fiskal manfaatni ko'zlash yetarli emas. Soliq mexanizmi tadbirkorning hisob yuritish imkoniyati, aylanma mablag'lari va yirik korxonalar bilan hamkorlik qilish ehtiyojini ham hisobga olishi lozim. Aylanmadan olinadigan soliq hisoblash jihatidan sodda bo'lsa-da, subyektning QQS zanjiridan tashqarida qoldiradi. Standart QQS rejimi esa zanjirning uzluksizligini ta'minlaydi, biroq kichik biznesga sezilarli ma'muriy yuk yuklaydi.

O'zbekistonda ixtiyoriy soddalashtirilgan QQS rejimining joriy etilishi ushbu ikki rejim o'rtasidagi keskin farqni kamaytirishi mumkin. Realizatsiya aylanmasidan pasaytirilgan stavkada soliq hisoblash, kiruvchi QQSni hisobga olmaslik, hisobotni avtomatik shakllantirish va standart rejimni tanlash huquqini saqlash mazkur mexanizmning asosiy elementlarini tashkil etadi.

Shu bilan birga, soddalashtirilgan rejimning samaradorligi faqat past stavka bilan emas, balki asoslangan aylanma chegarasi, rejimda qolish muddati, o'zaro bog'liq shaxslar aylanmasini birgalikda hisoblash va raqamli nazorat vositalari bilan ta'minlanadi. Taklif etilayotgan mexanizmning bosqichma-bosqich joriy qilinishi kichik biznesning qonuniy faoliyat yuritishini yengillashtirish, QQS zanjirini kengaytirish va soliq ma'muriyatchiligi xarajatlarini qisqartirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O‘RQ–599-son Qonuni bilan tasdiqlangan Soliq kodeksi.
2. Buyuk Britaniya hukumati. QQS bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tish tartibi va 90 ming funtlik chegara.
3. HM Revenue & Customs. VAT Flat Rate Scheme: Overview.
4. Germaniya Federal moliya vazirligi. §19 UStG bo‘yicha kichik tadbirkorlik qoidalarining 2025-yildagi tahriri.
5. Canada Revenue Agency. Small suppliers va GST/HST bo‘yicha ixtiyoriy ro‘yxatdan o‘tish.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ–1108-son “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ–1105-son “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. European Commission. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining ishlash mexanizmi.

Science
Publication